



## OROL DENGIZINING KECHAGI VA BUGUNGI KUNDAGI VAZIYATI

Uralova Madina G'anisherovna

"TIQXMMI " Milliy Tadqiqotlar Universteti Gidromelioratsiya fakulteti "Suv xo'jaligi va melioratsiya" yo'nalishi talabasi

madinauralova005@gmail.com

**Annotatsiya:** Bugungi kunda Orol dengizi borgan sari yo'q bo'lib bormoqda, buning sabablari va oqibatlari nimaligi to'g'risida mulohaza qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Orol dengizi, materiklar, meterologiya assotsiatsiyasi, chang bo'ronlari, baliqchilik, kemasozlik, kasalliklar.


**Kirish qismi.** Orol dengizi – O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston, shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbga cho'zilgan, uz. 428 km, eng keng joyi 235 km (45° shahrik.) bo'lgan. Havzasining maydoni 690 ming km<sup>2</sup>, suvining hajmi 1000 km<sup>3</sup>, o'rtacha chuq. 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan.

Orol dengizi sathining pasayishi 20-asrning ikkinchi yarmida Orol dengizi suv hajmining 90% yo'qolishi va uning o'rnida Orolqum cho'lining paydo bo'lishi bilan bog'liq antropogen-tabiiy ekologik ofatdir. Zamonaviy olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, Orol dengizi sathining pasayishiga antropogen omillarning ta'siri 70 foizdan oshdi. Orolbo'yida qishloq xo'jaligining rivojlanishi, birinchi navbatda sug'oriladigan yerlarda g'o'zaning intensiv yetishtirilishi munosabati bilan keskin



pasayish boshlandi. 1960-yillarga kelib plantatsiyalarni sug'orish uchun Orol dengizini to'yintiruvchi Amudaryo va Sirdaryoning butun oqimi demontaj qilindi, ko'plab suv omborlari va kanallar qurilishi suv ta'minoti va bug'lanish o'rtasidagi muvozanatni buzdi. 1985-1986-yillarda dengiz sathi 53 dan 41 m gacha pasaydi (Boltiqliq dengizi darajasiga nisbatan), Berg bo'g'ozi qurib ketdi va Orol ikkita mustaqil suv omboriga — Katta va Kichik suv omborlariga bo'lindi.

**Asosiy qismi.** Butunjahon meteorologiya assotsiatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Orol dengizining qurishi XX asrning eng yirik texnogen ekologik inqirozlaridan biridir. Quyidagi rasmda Orol dengizining hozirgi holati ko'rsatilgan:



### **1-rasm. Orol dengizining hozirgi kundagi ko'rinishi**

Ko'rinib turganidek, Orol dengizi butunlay yo'q bo'lib bormoqda, bu albatta achinarli holat. Bu holat ham insoniyatga, ham tabiatga salbiy ta'sirini o'tkazadi. Dengizning sobiq chegaralaridan 100 km gacha radiusda iqlim keskin kontinental bo'lib o'zgardi, yog'ingarchilik bir necha marta kamaydi, to'qay o'rmonlari nobud bo'ldi, 130 dan ortiq hayvonlar va 30 turdagi baliqlar yo'qoldi. Chang bo'ronlari quruq tubdan qum va unda to'plangan kimyoviy ifloslantiruvchi moddalarni uzoq masofalarga olib boradi. Changning ko'tarilishi Orolbo'yi aholisi o'rtasida nafas



olish, ko‘z, saraton va boshqa kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, baliqchilik va kemasozlik sanoatining yopilishi tufayli aholi ommaviy ishsizlikka duch keldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, 2024 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tashabbusi bilan Kelajak sammiti o‘tkazilishi xalqaro va mintaqaviy taraqqiyotning dolzarb muammolarini hal etishga, Tashkilotning ta’siri va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida qilgan nutqida Shavkat Mirziyoyev Orol dengizi fojiasi va iqlim o‘zgarishi oqibatlariga qarshi kurashish holati va bu borada yaqin kelgusi davrda amalga oshirish zarur bo‘lgan chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratdi.

Ayni paytda dunyoning juda katta mintaqalarida ekologik vaziyat keskinlashgan. Bunga bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganligi asosiy sabab bo‘lmoqda.

Million-million aholi yashaydigan ulkan hududlar, jumladan, Markaziy Osiyo ham, iqlim o‘zgarishlari oqibatlari tufayli ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan katta zarar ko‘rmoqda, ekologik vaziyat buzilmoqda, aholi salomatligiga jiddiy putur yetmoqda.

Allaqachon global muammoga aylangan Orol dengizi sathi keskin kamayishi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish borasida O‘zbekiston o‘z imkoniyatlari darajasida ulkan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Orol dengizi fojiasi va ekologik vaziyatni yumshatish bo‘yicha chora-tadbirlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda.



Bu davrda issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish va iqlimga chidamlilik darajasini oshirish bo'yicha davlat miqyosida qator kompleks dastur va strategiyalar qabul qilindi. Jumladan, 2019 yil 30 oktyabrda "2030 yilgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish Konsensiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5863-son Farmoni, 2022 yil 2 dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samardorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi " O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 436-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar bilan 2030 yilgacha bo'lgan davrda "yashil" iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi va dasturi, sanoatda energiya samardorligini oshirish dasturi, "yashil" iqtisodiyotga o'tish rejasi kabi ulkan chora-tadbirlar tasdiqlandi. Shuningdek, ularda 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda YaIMning har bir birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini 2010 yilga nisbatan 40%ga kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Cho'llanish, qurg'oqchilik, chang-qum bo'ronlari va harorat oshishiga qarshi 600 ming gektar maydonda "yashil to'siqlar" o'rmonlari tashkil etish belgilandi. Xavfli gidrometeorologik holatlar va tog' daryolari oqimlari holati haqida oldindan haqqoniy xabar berish darajasini mos ravishda 100% va 98%ga yetkazish choralari ishlab chiqildi.

Quruqlik ekotizimlarini himoya qilish va tiklash, ulardan oqilona foydalanish, cho'llanish, yer degradatsiyasi jarayonlarini to'xtatish va qaytarish, biologik xilma-xillik qisqarishini bartaraf etish borasida ham juda katta tadbirlar amalga oshirildi, bu borada ham qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Ularga binoan, mamlakatimizda so'nggi yillarda o'rmonlar tashkil etish jarayonlari tezlashtirildi va uning quruqlikdagi umumiy maydonga nisbati 8,5 dan 8,7%ga yetkazildi. 2018-



2022 yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar maydonda qurg'oqchilikka chidamli o'simliklardan iborat yashil hududlar barpo etildi.

Respublikada o'rmon maydonlarini 6,1 million gektarga va o'rmonchilik darajasini 30%ga yetkazish, yuqori samarali chang va gaz tozalash uskunalari va mahalliy tozalash inshootlarini o'rnatish va modernizatsiya qilish, 14 ta mintaqada ekologik toza hudud rejimini joriy etish, yiliga 200 million daraxt ekib, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 % ga oshirish, 1984 ta yashil bog'lar, shu jumladan, 3 yil ichida 112 ta yirik sanoat korxonalari hududi va atrofida 30 million daraxtdan iborat "yashil kamarlar" tashkil etish, respublikaning "Yashil makon" umummilliy loyihasi tashabbuslariga muvofiq 10 ta hududda aerobiologik monitoring tizimlarini yaratish rejalari ko'zda tutilgan.

Bular juda katta chora-tadbirlar va ularning amalga oshirilishi Orol dengizi fojiasi va og'ir ekologik vaziyatni yumshatish uchun juda katta xizmat qiladi. Lekin muammoning ko'lami allaqachon Markaziy Osiyo mintaqasi darajasidan kengayib, umumjahoniy tus olgan va uni hal etish uchun xalqaro darajada juda katta tashkiliy xatti-harakatlar qilish hamda moliyaviy resurslar ajratish talab etiladi. Buni esa faqatgina O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo davlatlari darajasida hal etishning imkoni yo'q. Bu sa'y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Hozirda Respublikamiz Orol dengizi emas, balki uning atrofida yashayotgan insonlarni, mavjud eko- tizimlarni asrab qolishga e'tibir qaratmoqda. Chunki birdan bir yo'l uni tiklash emas balki, bu joyni atrof muhitga ta'sirini kamaytirish. Aks holda bu yanada katta muammolarni keltirib chiqaradi. Iqlim keskin o'zgaryatgan bir paytda Orol dengizining holati yanada yomonlashmoqda. Shuning uchun mavjud barcha imkoniyatdan foydalangan holatda Respublikamiz barcha chora- tadbirlarni ko'rmoqda. Bu birgina davlatga tegishli emas balki,



hozirgi kunda mintaqaviy muammo hisoblanmoqda. Shuning uchun O'rta Osiyo davlatlari o'zaro kelishgan holatda bu muammoga yechim topib mavjud muammoni bartaraf etishlari lozim. Shunday ekan barchamiz xushyor bo'lishimiz va yordam berishimiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Mavlonova S.H., Xudoyorov L.X. OROL DENGIZINING EKOLOGIK HOLATI-BUGUNGI DUNYONING DOLZARB MUAMMOSI // Экономика и социум. 2023. №10 (113)-1

2.D. Jumanazarova OROLNING KECHAGI VA HOZIRGI EKOLOGIK HOLATI // SAI. 2022. №D4.

3.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol\\_dengizi\\_sathining\\_pasayishi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi_sathining_pasayishi)

4.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol\\_dengizi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Orol_dengizi)

5.<https://review.uz/uz/post/orol-fojiasini-yumshatish-va-ekologik-vaziyatni-yaxshilash-xalqaro-hamkorlikni-taqozo-etadi>